




ISSN: 3060-4613



13.00.00
13.00.01
13.00.02
13.00.03
13.00.04
13.00.05

13.00.06
13.00.07
13.00.08
13.00.09
07.00.00
19.00.00

01.00.00
02.00.00
03.00.00
09.00.00
10.00.00
11.00.00

№6/2025

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga
ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 160 sahifa,
5-iyun, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Mizayeva Faroxat Odiljonovna – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Umarova H.O' – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)

Panjijev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent temir yo'l muhandislari instituti.

EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Mizayeva Farokhat Odiljonovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Woogyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali Oliy attestatsiya komissiyasining 26-08-2024 yildagi №11-05-4381/01-Kengash tavsiyasiga ko’ra, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo’yicha ekspert kengashi tavsiyasi (29-10-2024-y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (30-10-2024-y., №10/24); OAK Rayosatining qarori (31-10-2024-y., №363/5).

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo’yicha
ro’yxatdan o’tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Iqim o'zgarishi muammolari va "yashil ko'nikmalar"ning rivojlanishi.....	14
<i>Abdurashit Karimovich Avliyaqulov</i>	
TTJlardagi qizlarni qo'llab-quvvatlash, mavjud ijtimoiy-axloqiy muammolarni hal etish bo'yicha ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish.....	18
<i>Xasanboy U. Abdusamatov</i>	
Integrativ yondashuv bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy omili	26
<i>Jalilov Nodirjon Azamatovich</i>	
Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning sibling munosabatlari diagnostikasi.....	30
<i>G'ayibova Nargiza Anorbayevna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omillari	33
<i>Hakimova Gulmira To'xtatosheva</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni muzey pedagogikasi vositasida rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlarini	37
<i>Marayimova Kibriyoxon Islomjon qizi</i>	
Iqtisodiy savodxonlikni oshirishda o'zbek tilining ta'siri	41
<i>Yuldasheva Dilnoza Bekturodova</i>	
Сторителлинг как инструмент формирования ценностных ориентаций старшеклассников	44
<i>Умрихина Виктория Игоревна</i>	
Формирование эстетических предпочтений учащихся музыкальных школ в условиях инклюзивного образования на основе стилевого подхода	52
<i>Ахунова Умида Ойбековна</i>	
Sun'iy intellektning ta'limga integratsiyasi: o'qitish va boshqaruvdagi o'rni	55
<i>Abduxamidova Muyassar Xalimjon qizi</i>	
Buxorodagi jadidchilik harakatining o'ziga xosligi va maktablardagi ta'lim tizimi.....	60
<i>Axrorov Ixtiyor Doniyorovich</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida imkoniyati cheklangan bolalarning moslashuvida oila va maktabning roli	63
<i>Dadaboyev Jahongir Sherdil o'g'li</i>	
Влияние длительной госпитализации на образовательную траекторию ребенка: междисциплинарный подход	67
<i>Сайфутдинова Насиба Нурматовна</i>	
O'yinning bola faoliyati sifatidagi mohiyati va o'ziga xosligi.....	75
<i>Otasheva Lola Shoto'rayevna</i>	
Psixologik tadqiqotning umummetodologik va xususiy metodologik tamoyillari	78
<i>Xodjimatoeva Nazira Toshmatovna, Mallayeva Gulshoda Maxmudjonovna</i>	
Rivojlanishida nuqsoni bor bo'lgan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda inklyuziv ta'limning o'rni	81
<i>B. Xusniddinova</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida loyihaviy tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish	85
<i>Zulaykho Samatovna Ro'ziyeva</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini dars jarayonida rivojlantirish texnologiyasi	89
<i>Xudaybergenova Nawrizbiyke Qanat qizi</i>	
Sonlarni obrazlar bilan bog'lash orqali mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi.....	92
<i>Kalekeeva Sarbinaz Turkmenbaevna</i>	
Methodology of Teaching English to Preschool Children	96
<i>Khurshida Tojimurodova</i>	
Malaka oshirish jarayonida yo'riqchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning ijtimoiy zaruriyati..	100
<i>Ch. B. Nalibayeva</i>	
O'qituvchilarning o'quvchilar bilan hamkorlik munosabatlari	103
<i>G'aniyeva Sayyora Saidmurod qizi</i>	
Falsafada haqiqatni izlash: empirizm va rasionallizmning o'rni.....	106
<i>Boymirzayeva Xurshida Sobirovna</i>	



Raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun axborot bilan ishlashni o'rgatishning didaktik asoslari	110
Ismoilov Ravshan Yakubjon o'g'li	
An Evaluation of the Impact of The Theme-Based Approach on Young Learners' Speaking Development..	113
Khamraeva Gulchekhra Ibrakhimovna	
O'smirlar o'rtasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar	118
Majidov Jasur Baxtiyarovich, Xolmatova Dilorom Vahobjon qizi	
Informatika fanini o'qitishda mobil dasturiy vositalaridan foydalanish imkoniyatlari	123
Jo'rayev Ilhom Isxoqovich	
Muqimiy asarlari vositasida talabalarda kitobxonlik tizimini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish	126
Muxlisa Satriiddinova Muhitdinova	
Korpus lingvistikasida lingvostatistik tahlil metodi	132
Nuriddinov Abrorbek Sayfiddin o'g'li	
Bo'lajak o'qituvchilarni ruhlantirish va o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	136
Umarova Feruzabonu Bobir qizi, Samandarova Dildora Javlon qizi	
Tizimli-faoliyatli yondashuv asosida umumpedagogik akt kompetentlikni shakllantirish muammosining nazariy-metodologik jihatlarini	139
Saloxiddinova Umidaxon Mansurjon qizi	
Nutqiy kamchiliklarni kamaytirishda o'yinlarning o'rni	143
Jabborova Oltinoy	
Matn bilan ishlash bosqichlari va ularning ingliz tilini o'rgatishdagi didaktik ahamiyati	146
Soliyev Umidjon Yulchivoyevich	
Ta'lim tizimini boshqarishda talabalar boshqaruvining qiyosiy tahlillari	150
Uzaqov Nomoza Hamdamovich	
Zamonaviy ta'lim muassasalarida pedagoglarning boshqaruv malakasini rivojlantirish yo'llari	153
Z. M. Zarifova	



BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA LOYIHAVIY TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Zulaykho Samatovna Ro'ziyeva

ISFT instituti, Psixologiya va pedagogika kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning samarali o'zlashtirishi ko'p jihatdan boshlang'ich sinf o'qituvchisining loyihaviy-tadqiqotchilik ko'nikmalariga bog'liq. Shu sababli, pedagog kadrlar tayyorlash tizimi bo'lajak o'qituvchilarda loyihalashtirish kompetensiyasini shakllantirishni o'zining ustuvor vazifalaridan biri sifatida amalga oshirishi lozim. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodkorlik, tashabbuskorlik, moslashuvchanlik va faoliyatga yo'naltirilgan loyihaviy ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy jihatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: moslashuvchanlik, ijodkorlik, faollik, mobillik, tashabbus, natija, faoliyat, loyiha.

Abstract: The effectiveness of learning in primary education largely depends on the project-based research competence of primary school teachers. Therefore, teacher training programs in higher education should prioritize the development of research and project-oriented skills among future educators. This article analyzes the essential elements required to foster creativity, adaptability, initiative, and independent project-based activity among pre-service primary school teachers.

Key words: adaptability, creativity, activity, mobility, initiative, outcome, practice, project.

Аннотация: Эффективность обучения учащихся начальной школы во многом зависит от уровня проектно-исследовательской компетентности учителя. В связи с этим система подготовки педагогических кадров должна рассматривать формирование проектных и исследовательских навыков у будущих учителей в качестве одной из приоритетных задач. В статье анализируются ключевые аспекты развития у студентов педагогических направлений таких качеств, как творческий подход, инициативность, мобильность и способность к самостоятельной проектной деятельности.

Ключевые слова: адаптация, творчество, активность, мобильность, инициатива, результат, деятельность, проект.

KIRISH

Dunyoda muvaffaqiyat ko'p jihatdan insonning o'z hayotini loyiha sifatida tashkil eta olish qobiliyatiga bog'liq: uzoq-yaqin istiqbolni belgilash, zarur resurslarni topish va jalb qilish, harakatlar rejasini tuzish hamda uni amalga oshirish orqali belgilangan maqsadlarga erishilgan-erishilmaganini baholash. Mamlakatimizda ham, xorijda ham olib borilgan ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, siyosat, biznes, san'at va sport sohalaridagi zamonaviy yetakchilarning aksariyati loyihaviy fikrlash turiga ega shaxslardir. Bugungi kunda maktabda o'quvchilarning alohida faoliyat turi – loyiha faoliyati orqali loyiha tafakkurini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan.

Loyihalash faoliyati umumta'lim maktablarida tobora keng qo'llanilayotgan bo'lsa-da, uning mazmun-mohiyati va qanday shakllanishi lozimligi borasida hali aniq tasavvurlar shakllanmagan. "Loyiha" tushunchasi ostida turli ko'rinishdagi ishlarni tushunish mumkin: oddiy referat yoki standart topshiriqni nostandart tarzda bajarishdan (masalan, o'rganilayotgan mamlakat yoki davrga oid qo'shiq va raqslarni ijro etish orqali geografiya yoki tarix darsidagi javob) tortib, kurs yoki diplom ishi tamoyiliga asoslangan holda himoya qilinadigan jiddiy tadqiqotgacha.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarda mustaqil izlanish va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda loyiha asosida ta'lim berish muhim pedagogik yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ivashedkina va Poletayeva ta'limda loyihaviy-tadqiqotchilik faoliyatini rejalashtirilgan natijalarga erishishning samarali vositasi sifatida

tahlil qilib, bu jarayon o'quvchining faol ishtirokiga, mustaqil fikrlashga, hamkorlikda ishlashga asoslanishini ta'kidlaydi. Ularning izlanishlariga ko'ra, o'quv loyihalari orqali fanlararo integratsiya va motivatsiya kuchayadi.

Rossiyaning Primorsk o'lkasidagi "Yuniy issledovatel" nomli boshlang'ich maktab o'quvchilariga qaratilgan anjuman materiallarida loyiha ishlari orqali bolalarda kuzatish, gipoteza ilgari surish va uni tekshirish ko'nikmalarining bosqichma-bosqich shakllanishi tajribaviy jihatdan ko'rsatib berilgan. Bunda yoshga moslashtirilgan loyiha namunalari ta'lim-tarbiyadagi ahamiyati alohida ajratib ko'rsatilgan.

Mazkur yo'nalish bo'yicha Z.S. Ruziyeva bir nechta nufuzli jurnallarda e'lon qilgan maqolalarida boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun loyiha kompetensiyasining mazmuni, tarkibiy tuzilmasi va shakllanish bosqichlarini asoslab bergan. Jumladan, u 2022-yilda chop etilgan ishida pedagog kadrlar loyihani rejalashtirish, amalga oshirish va natijasini baholash bo'yicha metodik tayyorgarlikka ega bo'lishi zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, loyiha metodining amaliy qo'llanilishi, uning samaradorlik omillari va boshlang'ich ta'limga moslashuvchanligi haqida muhim dalillar keltirgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Loyiha faoliyati – nisbatan yangi pedagogik texnologiya bo'lib, uning istiqboli keng.

Loyiha – bola tushungan, qabul qilgan va faoliyat jarayonida amalga oshirgan maqsaddir. "Loyiha" so'zi lotincha "oldinga tashlangan" ma'nosini anglatadi, ya'ni bu – maqsadga erishish uchun ishlab chiqilgan reja bo'lib, natijada muallif yangi mahsulotga ega bo'lishi kerak: bu mahsulot munosabat, dastur, kitob, film, model, ssenariy va boshqa shakllarda bo'lishi mumkin.

"Loyiha" tushunchasi o'qituvchi tomonidan maxsus tashkil etilgan va o'quvchilar tomonidan mustaqil bajariladigan, ijodiy mahsulot yaratish bilan yakunlanadigan faoliyatlar majmuini anglatadi. Bunday ijodiy ishlar sifatida rasm, hunarmandchilik, haykaltaroshlik, hikoya, o'qish, jumboq, konsert kabi faoliyatlarni keltirish mumkin.

Zamonaviy jamiyat maktab oldiga nafaqat o'quv dasturini puxta egallagan, balki mustaqil fikrlaydigan va bilimni mustaqil ravishda izlab topa oladigan bitiruvchini tayyorlash vazifasini qo'ymoqda. O'qitishning ijodiy usullari bu jarayonda yetakchi o'rin tutishi kerak. Innovatsion pedagogik vosita va metodlar orasida tadqiqotga yo'naltirilgan ijodiy faoliyat alohida ahamiyat kasb etadi ^[1].

Boshlang'ich sinf o'quvchilari atrofda sodir bo'layotgan voqealarni qiziqish bilan kuzatadilar, ba'zan xayoliy gipotezalar ilgari surib, ularga javob izlaydilar. Ularning qiziqishlari rang-barang: fizika-kimyo jarayonlari, hayvonot va o'simlik dunyosi, narsalarning kelib chiqishi, vaqtning qiymati, san'at, psixologiya kabi sohalarini o'z ichiga oladi. Bu qiziqishni saqlab qolish hamda o'quvchilarni ushbu ijodiy faoliyatga to'g'ri yo'naltirish muhimdir. Biroq, avvalo, meta-fan natijalariga erishish uchun loyiha-tadqiqot faoliyatining ahamiyatini o'qituvchining o'zi chuqur anglab yetishi lozim.

"Loyihalashtirish faoliyati" tushunchasi "loyihalashtirish" va "loyihalar metodikasi" tushunchalari bilan bevosita bog'liq. Loyihalashtirish – konstruksiyalashtirish jarayoni bo'lib, u muhandislik psixologiyasi bo'yicha ishlarda keng tasvirlangan. Mazkur masalaning nazariy tahlili A.G. Goroxov va V.S. Stepni kabi olimlarning ilmiy asarlarida o'z ifodasini topgan ^[35].

TAHLIL VA NATIJALAR

Loyihani yaratish – nazarda tutilayotgan obyektning timsolini shakllantirish jarayoni bo'lib, u "loyihalashtirish" deb ataladi. Loyihalashtirish – atrof-muhitni o'zgartirishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirish demakdir. Mashhur ingliz olimi J.K. Jons loyihalashtirish jarayonini "sun'iy muhitda o'zgarishga ibtido beruvchi faoliyat turi" deb ta'riflagan va quyidagi sxemani taklif etgan: tahlil (divergensiya), sintez (formatsiya), baholash (konvergensiya) ^[50].

Y.E. Panomaryova va M.V. Siganova esa bu tushunchalarning zamonaviy talqinini quyidagicha izohlaydi ^[136]:

- Tahlil – loyihalashtirishni boshlashdan avval amalga oshiriladigan faoliyat bo'lib, quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: ma'lumotlarni to'plash (shu jumladan tasodifiylarini ham), tasniflash, axborot vositalari ro'yxatini tuzish, ularni tahlil qilish va bog'liqliklarni aniqlash, mezonlar ro'yxatini shakllantirish va kelishib olish.
- Sintez – ijodiy tafakkurni faollashtirgan holda umumiy tizimni qismlarga ajratish va ularni qayta integratsiyalashni, elementlar kombinatsiyalarini tuzishni, yechimlarni tushunarli tartibda ifodalashni o'z ichiga oladi.
- Baholash – baholash usullarini tanlash, loyihani tayyorlash va amalga oshirishdan tortib, ishlab chiqarish va sotish nuqtai nazaridan qiymat berish bosqichlarini qamrab oladi ^[136, 164-b.].

S.A. Maliy loyihalashtirishni "ba'zi obyektlarni yaratish va rivojlantirish bo'yicha har tomonlama kelishilgan murakkab yechimlarni izlash jarayoni" sifatida talqin etadi ^[98, 21-b.]. V.S. Bezrukova, Y.E. Isayev, V.I. Slobodchikov, N.F. Talizina, I.S. Yakimanskaya kabi olimlar esa ushbu tushunchani pedagogik loyihalashtirish doirasida – ya'ni tahsil oluvchilar va pedagoglar amalga oshiradigan faoliyatning asosiy qismlarini oldindan rejalashtirish deb izohlaydilar ^[12, 155, 166].



Ushbu tushunchalar bizning tadqiqotimiz doirasida ham tavsiflanib, o'zaro taqqoslanadi. Ular umumiylikka ega bo'lsa-da, asosan mehnat faoliyatining emas, balki o'quv faoliyatining turli xossalari bilan ajralib turadi. Talabalar o'quv loyihalashtirish jarayonida shaxsiy rivojlanishga yo'naltirilgan holda bilimlarni amaliyotda qo'llashni o'rganadilar. V.Y. va L.K. Istorik fikricha, talaba yangi bilimlarni hayotiy-amaliy vaziyatlarda qo'llash, tayyor bilimlarni mustaqil qo'llash, ijodiy tajriba orttirish, olamga hissiy va qadriyatli munosabatni shakllantirish orqali "ta'lim mahsuloti"ni yaratadi [36, 65-b.].

N.V. Gorbunova, V.V. Guzeyev, A.V. Xutorskoy, I.D. Chechel va boshqa tadqiqotchilar ta'kidlashicha, loyihalashtirish faoliyatida faktik bilimdan ko'ra, faoliyat usullarini egallash muhimroqdir [34, 47, 181]. Pedagog va tahsil oluvchi o'rtasidagi subyekt-obyekt munosabatlari o'rniga subyekt-subyekt asosidagi hamkorlik vujudga keladi. O'qituvchi loyiha algoritmini tushuntiradi, jarayonni nazorat qiladi, maslahat beradi va talabalarni maksimal mustaqil ijodkorlikka yo'naltiradi.

A.E. Prichinin [138] loyihalashtirishdan oldingi tadqiqotlar, o'quv predmeti, o'quv jarayoni va baholash vositalari o'rtasidagi uzviy aloqani e'tirof etadi. Loyihalashtirish faoliyatining texnologik effekti esa shakl va mazmunni o'zgartirishga qaratilgan ketma-ket amallar birikmasidir.

V.P. Bikov [24] loyihalashtirish jarayonini kechiktirilgan mehnat faoliyatiga o'xshash bosqichma-bosqich model asosida tahlil qiladi:

- Ehtiyojni aniqlash – ehtiyoj ijtimoiy ishlab chiqarishdan kelib chiqadi.
- Maqsadni aniqlash – loyihalashtirish maqsadlari belgilab olinadi.
- Obyekt belgilari – parametrlar va sifat ko'rsatkichlari aniqlanadi.
- Tahlil va variant izlash – adabiyotlar tahlili va evristik usullar qo'llaniladi.
- Qaror qabul qilish – noaniqlik sharoitida amalga oshiriladi [24].
- P.A. Petryakov [128] loyihalashtirishni quyidagi bosqichlarda ko'rsatadi:
- Izlanish bosqichi: muammo qo'yish, mavzu tanlash, reja tuzish, axborotni tahlil qilish.
- Konstruktorlik bosqichi: yechimlar izlash, texnologiya tanlash, ekologik ekspertiza, iqtisodiy tahlil.
- Texnologik bosqich: rejani ishlab chiqish, asbob va operatsiyalarni bajarish, sifat nazorati.
- Yakuniy bosqich: natijalarni tahlil qilish, hujjatlashtirish, foydalanish imkoniyatlarini baholash.
- G.B. Golub va O.V. Churakova [33] talabalarning loyihalashtirish faoliyatini quyidagi bosqichlarga ajratadi:

1-jadval: Loyihalashtirish faoliyati bosqichlari

№	Bosqich nomi	Amallar
1	Izlanish	Mavjud analoglarni, tarixiy va axborot nuqtai nazardan tahlil qilish
2	Loyihalashtirish	G'oyalar ishlab chiqish, mezonlar ro'yxati, konstruktsiya
3	Texnologiya	Asboblarni tanlash, operatsiyalarni rejalashtirish va bajarish
4	Loyihani asoslash	Ehtiyoj va xarajatlarni aniqlash, hujjatlashtirish
5	Tahlil bosqichi	Himoya qilish, natijalarni mustaqil baholash va tahlil qilish

Ko'rib turganimizdek, loyiha ustida ishlash besh bosqichga bo'linadi. Bu jarayonda tahsil oluvchilar yaratgan loyihalar kattalar tomonidan qurilgandek mazmunga ega bo'ladi. Loyiha ustida bosqichma-bosqich ishlash mahsuldor bilish faoliyatining asosiy bosqichlariga mos keladi: muammoli vaziyat – muammoni aniqlash, insonning muammoni anglashi yoki tushunishi – muammoni hal etish yo'llarini izlash [33].

Loyihalashtirish tabiatidan kelib chiqib, olim A.P. Suxodumseva [164] pedagogik loyihalarda bir yoqlama yechimlarning mavjud emasligini, ya'ni mazmun va texnologik variantlarning xilma-xilligini anglash zarurligini ta'kidlaydi. Predmetli faoliyat uch asosiy blokdan iborat: predmetli, faoliyatga asoslangan va kommunikativ [164].

Vazifani to'g'ri qo'ya olish qobiliyati – san'at bo'lib, loyihalashtirish faoliyatining eng yuqori darajasidir, ammo u har bir holatga tatbiq etilmaydi.

Loyihalashtirish faoliyatini tashkil etishda talaba oldiga ikki asosiy vazifa qo'yiladi: bilimlarni egallash va oliy ta'lim muassasasini tugatgach, mustaqil kasbiy faoliyatga tayyor bo'lish. Bu faoliyat turini amalga oshirish jarayonida talaba nazariy bilimlarni o'zlashtiradi, loyihalashtirish jarayonini amalda bajaradi hamda uni bo'lajak kasbiy faoliyatda qo'llash uchun zarur malaka va ko'nikmalarga ega bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shu tariqa, talabalarning o'quv loyihalashtirish faoliyati deganda loyiha g'oyasidan boshlab uni yakuniy amalga oshirishgacha bo'lgan mustaqil bajarilgan bosqichli jarayon tushuniladi. Bu jarayonda talaba ilgari o'zlashtirgan va yangi egallanadigan bilimlar, ko'nikma va malakalarni integratsiyalash, shuningdek ularni takror ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish tayyorgarligini namoyon qiladi. Bunda o'quvchining ijodkorlik salohiyati bevosita shakllanadi.



Yuqorida keltirilgan ilmiy qarashlar asosida loyihalashtirish faoliyatiga quyidagicha yondashamiz:

- zamonaviy o'qitish vositasi sifatida;
- innovatsion, ijodiy va mustaqil faoliyat shakli sifatida;
- shaxsiy rivojlanish imkoniyati sifatida;
- shaxsni ta'lim sifati orqali rivojlantirib, loyiha (loyihalashtirish) kompetensiyasi va kasbiy jihatdan muhim sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladigan pedagogik shart-sharoit sifatida.

Tadqiqotchi olimalar Y.E. Ponomaryova va M.V. Siganova^[136] loyihalashtirish faoliyatini mustaqil tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish, mashq qildirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan samarali metodlardan biri sifatida baholaydilar. Ularning ta'kidlashicha, bu metod o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi hamda hayotiy muammolarni hal etishga qaratilgan faol ishtirokni ta'minlaydi.

"Loyihalar metodi" tarixiga murojaat qiladigan bo'lsak, uning shakllanishi amerikalik faylasuf va pedagog J. Dyui hamda uning shogirdi V.X. Kilpatrik nomlari bilan bog'liq. Hozirgi kunda bu metod O'zbekiston ta'lim tizimida faol tatbiq etilmoqda.

Ma'lumki, bilish jarayonini tashkil qilish vositasi sifatida loyihalar metodi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Uning asosiy g'oyasi – o'quvchilar tomonidan amaliy yoki nazariy jihatdan ahamiyatli bo'lgan muammoni hal etishga yo'naltirilgan natijaga erishishdir.

Amaliy tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, loyihalar metodini qo'llash nafaqat boshlang'ich maktab bosqichida, balki barcha ta'lim modellarida, istalgan fan o'qitilishida samarali qo'llanilishi mumkin. Chunki u bolalarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, loyiha faoliyatini tashkil etish bugungi ta'lim mazmunini yangilash sharoitida nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ivashedkina O.A., Poletayeva Ye.K. Uchebnaya issledovatel'skaya deyatel'nost kak sredstvo dostizheniya planiruemyykh obrazovatel'nykh rezultatov. O.A. Ivashedkina, Ye.K. Poletayeva. – SPb.: APPO, – 2012.
2. Malaya konferentsiya proektnykh i issledovatel'skikh rabot uchashchikhsya nachal'noy shkoly Primorskogo rayona "Yuniy issledovatel". [<https://nsportal.ru/node/2913683>]
3. Ruziyeva Z.S. Project Activity in Primary School. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*. ISSN: 2249-7137. Vol. 12, Issue 03, March 2022.
4. Ruzieva Z.S. Formation of Project Competence of Future Elementary School Teachers. *International Journal for Innovative Engineering and Management Research*. April 2022. ISSN: 2456-5083.
5. Ro'ziyeva Z.S. Требования к использованию метода проектов. – S. 99–102. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 2022-yil, 13–14-may.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.